ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHONAZAR SHOABDURAHMONOV QO'QON SHEVASI XUSUSIYATLARI HAQIDA

Qodirov Umarjon Akramjon o'g'li,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi o'qituvchisi

Shonazar Shoabdurahmonovning ilmiy faoliyati 1940-yillarning oxiridan boshlangan. Dastlab badiiy asar tili masalalari bilan qiziqib yurdi. Nomzodlik dissertatsiyasini ham 1949-yilda "Ravshan" dostoni tilining badiiy xususiyatlari" mavzusida himoya qildi. Bir muddat orfografiya va punktuatsiya masalalari bilan shug'ullandi.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab dialektologiya masalalari bilan qiziqa boshladi. 1957-yilda uning dialektologiya bilan bog'liq birinchi maqolasi – "Qo'qon shevasining ba'zi bir fonetik xususiyatlari" nomi bilan nashr etildi[1]. Bu maqolada asosan gap qo'qon shevasining fonetik xususiyatlari haqida boradi. Lekin maqolada misol uchun keltirilgan so'zlar bevosita qarluq lahjasi leksikasiga oid bo'lgani uchun bu so'zlar xususida ayrim mulohazalarni bayon qilib o'tish lozim.

Shonazar Shoabdurahmonov maqolada qo'qon shevasiga oid so'zlarni fonetik jihatdan tadqiq qilar ekan, ularning shevadagi talaffuzini transkripsiyada juda aniqlik bilan beradi. Bu o'rinda keltirilgan aksariyat so'zlarning adabiy tilda muqobili bo'lsa-da, ular xuddi yangi bir so'zday tuyuladi:

йурей (< ad. orf. yurak)
тъннақ (< ad. orf. tirnoq)
шэқ (< ad. orf. shox)
боғун (< ad. orf. bo'g'in)
радъйол (< ad. orf. radio)
мәрдәк (< ad. orf. mardak)
сота (< ad. orf. so'ta)
чънчалақ (< ad. orf. jimjiloq)[2].

Misol uchun keltirilgan bu so'zlarga e'tibor bersak, ularning aksariyati adabiy tilimizda mavjud bo'lgan so'zlar. Lekin talaffuzida jiddiy farqlar bo'lgani sababli yangi (adabiy tilda yo'q) so'zdek tuyuladi.

Biz bu misollar ichidagi "mardak" so'ziga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izoh berilgan: "Mardak [f. كُدرم – kichkina odam, pakana; ahmoq, go'l] *shv.* 1) jo'xori so'tasi; 2) yengiltabiat, pastkash kishi"[3].

Biz bu so'zning izohli lug'atda berilgan shevadagi ma'nosiga dastavval to'xtalib o'tmoqchimiz. Avvalo, lug'atda berilgan "jo'xori so'tasi" degan izohning o'zi noaniq. Chunki "jo'xori" deb oldidagi qo'shimchasiz aytilganda odatda oq jo'xori (qo'qon jo'xori) tushuniladi. Oq jo'xorining donli hosili esa so'ta shaklida emas, boshida bo'ladi va u "jo'xori boshi" deb nomlanadi. Odatda Farg'ona vodiysida "jo'xori so'tasi" deb ishlatilmaydi. Balki "so'ta" deb mutlaq aytilganda, makkajo'xori so'tasi tushuniladi, ba'zidagina "makkajo'xori so'tasi" deb birgalikda ishlatiladi.

Ikkinchidan, "mardak" so'zi makkajo'xori so'tasi bilan aynan bir xil ma'noda emas, balki u so'taning bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham Sh.Shoabdurahmonov "mardak" va "so'ta" so'zlarini alohida-alohida so'z sifatida keltirgan. So'ta makkajo'xorining donli hosilini o'zida jamlagan bo'lagi. U to'rt qismdan iborat:

1. So'taning po'stlog'i.
2. Mardak, ya'ni makkajo'xori donlari joylashadigan qattiq o'zakdan iborat qismi.
3. Mardakda joylashadigan donlar.
4. Mardakning uchida joylashgan, po'stloq ushlab turadigan soqoli.

Shu o'rinda ushbu so'zning adabiy tildagi ma'nolari (kichkina odam, pakana, ahmoq, go'l; yengiltabiat, pastkash kishi) bilan shevadagi ma'nolari o'rtasida qanday aloqadorlik bor, degan savol tug'iladi.

Bizningcha, avvalo, ushbu so'zning qaysi tildan olinganligiga oydinlik kiritish lozim bo'ladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zning fors tilidan olinganligi ko'rsatilgan. Lekin 1969-yilda nashr etilgan "Farhangi zaboni tojiki"da bu so'z mavjud emas. Ehtimol, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tuzuvchilar "mardak" so'zi tarkibidagi "mard" (bu so'z tojikcha "erkak" degan ma'noni bildiradi) qismini so'zning

[1] Шоабдураҳмонов Ш. Қўқон шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I. – Тошкент, 1957. – Б. 313-321.
[2] Шоабдураҳмонов Ш. Қўқон шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I. – Тошкент, 1957. – Б. 318.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 543.

o‘zagi, “-ak” esa tojik tilidagi kichraytirish shaklini yasovchi qo‘shimcha, deb o‘ylab, uni forscha, deb ko‘rsatib ketgandirlar.

Masalaga oydinlik kiritish uchun Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga murojaat qilamiz. “Devon”da “mardak” so‘zi quyidagicha izohlangan: “كَدْرَم merdäk (merdak) – ayiq bolasi. Uni aδïğ (ayiq – U.Q.) merdäki deyiladi. Ba’zi bir turklar “to‘ng‘iz bolasi”ni toŋuz merdäki deydilar”[1].

Ko‘rinib turibdiki, Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni tub turkiy so‘z sifatida izohlagan. Uning xato qilish ehtimoli juda kam.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da bir necha o‘rinlarda “mardak” so‘zini ishlatadi. Barcha joyda Bobur “mardak” so‘zini pastkash, munofiq, xiyonatchi, badfe’l odamlarni sifatlash uchun qo‘llaydi. Masalan: “Yana bir Vali edi... Badzabon va fahshgo‘y va xudpisand va tiyra mag‘z mardak edi...”[2]

“Xalifani Shayx Zunnung‘a risolat tariqi bila yiborildi. Ul behush mardak javobi shofiy bermay, Xalifani tutturub o‘lumga buyurdi...”[3]

“(Xisravshoh) ...bu besh kunlik dunyo maslahati jihatidinkim, ne anga vafo qildi va ne hech kimga vafo qilg‘usidur, tutub, bu ko‘rnamak mardak ko‘zlariga nishtar solib, ko‘r qildi”[4].

Boburning “mardak” so‘zini ishlatgan o‘rinlariga qarasak, u aynan Mahmud Koshg‘arish izohlagan ma’noda, ya’ni “to‘ng‘iz bolasi” ma’nosida ishlatganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni Bobur eng tahqirlovchi, pastga uruvchi sifat o‘rnida qo‘llagan.

Bobur ishlatgan, “Devonu lug‘otit turk”da izohlangan, Sh.Shoabdurahmonov o‘z maqolasida keltirib o‘tgan “mardak” so‘zi va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sharhlangan “mardak” so‘zining shakliy o‘xshashligiga kelsak, boshqa-boshqa tillarda bunday shaklan o‘xshash, ma’no jihatdan butunlay bir-biridan farqli so‘zlar uchrab turadigan hodisa. Masalan:

1. **Sol** (سال) *o‘zb.* – Yog‘och, qamish kabi materiallardan ishlangan va suv yuzida yuk, odam tashiydigan transport.

Sol (سال) *fors.* – Yil.

2. **Omoch** (آماچ) *fors.* – Nishona, qora (o‘q otib mashq qilish uchun qo‘yilgan qora, nishon taxtasi).

Omoch (آماچ) *o‘zb.* – Yer haydaydigan ma’lum asbob.

3. **Ohu** (آهو) *fors.* – Kiyik.

Ohu (آهو) *o‘zb.* – Ayb, gunoh.

4. **Rang** (رنگ) *fors.* – Tus, bo‘yoq.

Rang (رنگ) *o‘zb.* – Tog‘ echkisi.

5. **Rux** (رخ) *fors.* – Yuz, bet.

Rux (رخ) *arab.* – Shaxmat donalaridan birining nomi.

6. **Savdo** (سودا) *arab.* – I. Qora o‘t, melanxoliya.

II. 1. Kuchli ehtiros, berilish; ishq, shaydolik; 2. Xayol; tentaklik, jinnilik; 3. Istak, havas, orzu.

Savdo (سودا) *fors.* – Oldi-sotdi.

7. **Sur** (سور) *fors.* – To‘y, bazm, shodlik.

Sur (سور) *arab.* – Qo‘rg‘on, qal’a.

Sur (سور) *o‘zb.* – Sur odam, ko‘zi och odam.

8. **Somon** (سامان) *fors.* – 1. Iloj, yordam, ko‘mak; 2. Hosil; 3. Tartib, intizom; 4. Kuch, hol, qudrat; 5. Qobiliyat, layoqat; 6. Ashyo, anjom, jihoz; 7. Davlat, boylik.

Somon (سامان) *o‘zb.* – Somon, bug‘doyning somoni[5].

Bu keltirilgan misollarning arab yozuvidagi shakli ham, hozirgi joriy alifbomizdagi shakli ham, talaffuzi ham bir xil ekanligi ko‘rinib turibdi. Lekin bu mutlaq moslik bir til doirasida emas. Binobarin, ushbu so‘zlarning qaysi ma’noda ishlatilganini kontekstdagina bilish mumkin bo‘ladi.

Biz yuqorida keltirgan “mardak” so‘zi xususidagi fikrlarimizni quyidagicha xulosaladik:

1. Shonazar Shoabdurahmonovning “Qo‘qon shevasining ba’zi bir fonetik xususiyatlari” nomli maqolasida keltirilgan “mardak” so‘zi sof turkiy so‘z bo‘lib, uning tojik tilidagi “mard” yoki “mardak” so‘zlariga hech qanday aloqasi yo‘q. Ikki tildagi bu bir xil so‘zning o‘xshashligi mutlaqo tasodifiydir.

2. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida “mardak” so‘zini sof turkiy so‘z sifatida izohlagan.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da “mardak” so‘zini Mahmud Koshg‘ariy izohlagan ma’nolarda qo‘llagan, ya’ni tahqirlash va pastga urish ma’nosida.

4. Farg‘ona shevalarida ishlatiladigan “mardak” so‘zining ham tojik tilidagi “mard” yoki “mardak” so‘ziga hech qanday aloqasi yo‘q. Mahmud Koshg‘ariy izohlagan ma’nolar bilan aloqadorligi bor-yo‘qligini esa tekshirib ko‘rish lozim bo‘ladi.

[1] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони). – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 190.
[2] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б. – Б. 29.
[3] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б. – Б. 32.
[4] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б. – Б. 55.
[5] Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1972. – 784 б.

Rezyume. Maqolada akademik Shonazar Shoabdurahmonovning Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida yozilgan maqolasidagi fikrlari xususida so‘z boradi. Olimning ushbu maqolada misol uchun keltirib o‘tgan Qo‘qon shevasiga xos ba’zi so‘zlarning ma’noviy qirralari ayrim adabiy va ilmiy asarlardan olingan iqtiboslar yordamida ochib beriladi.

Resume. The article deals with the opinion of academician Shanazar Shaabdurakhmanov in his article on the peculiarities of the Kokand dialect. The spiritual aspects of some words characteristic of the Kokand dialect, which the scientist cited in this article as an example, are revealed through quotations from reliable literary and scientific works.

Резюме. В статье речь идёт о мнении академика Шаназара Шаабдурахманова в его статье об особенностях кокандского говора. Духовные аспекты некоторых слов, характерные для кокандского диалекта, которые ученый привел в данной статье в качестве примера, раскрываются с помощью цитат из достоверных литературных и научных произведений.